



QASHQADARYO VOHASINING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI

Jumayev Bahrom,
QarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Qashqadaryo vohasi geografik jihatdan ikkita yirik tarixiy viloyatga, jumladan, Shahrisabz va Qarshiga bo'linganligini, Shahrisabz (Qadimgi Kesh) Qashqadaryoning yuqori oqimida joylashganligi, sharqdan Hisor tog' tizmalari bilan o'ralganligi, quyi Qashqadaryoda, vohaning tekislik qismida esa Qarshi (Qadimgi Naxshab) viloyati joylashganligi, u g'arbda Sandiqli qumliklari orqali Qizilqum bilan tutashib ketganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ilmiy dalillar asosida yoritib bergan.

Shuningdek, Qashqadaryo hududida mavjud bo'lgan tog'lar va tog' oldi zonalari, adirlar, keng dashtlar va sug'oriladigan maydonlar qadimdan sug'orma va lalmi dehqonchilikni, chorvachilikni, bog'dorchilikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilganligi, hududning tog'li hududlarida mavjud bo'lgan foydali qazilmalar hamda qishloq xo'jalik xom-ashyo manbalari hisobiga vohada qadimdan iqtisodning muhim tarmog'i bo'lgan hunarmandchilik rivojlanib kelganligi ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari asosida dalillangan.

Tayanch so'zlar: Janubiy O'zbekiston, Qashqadaryo vohasi, vohaning umumiy maydoni, abadiy muzliklar, beklikning chegarasi, daryosi bo'ylari, daryo o'zani, tog'li va tog' oldi tumanlari, vaqf yerlari, mang'itlar hukmronligi, diniy amaldorlar, Zamini amlok, zamini podshoh, mulki podshoh, mahalliy hokimlar, balandlik mintaqalari.

Аннотация. В данной статье автор, основываясь на научных данных, представляет факт географического разделения оазиса Кашкадарья на два крупных исторических региона, включающих Шахрисабз и Карши, при этом Шахрисабз (древний Кеш) расположен в верховьях Кашкадарьи, окружен с востока горным хребтом Гиссар, а регион Карши (древний Наксхаб) расположен в низовьях Кашкадарьи, на равнинной части оазиса, и соединен с Кызылкумом на западе через песчаные дюны Сандикли.

Научная литература также подтверждает, что горы и предгорья, холмы, обширные степи и орошаемые территории Кашкадарьинской области издавна служили основой для развития орошаемого и неорошаемого земледелия, животноводства и садоводства, а также что благодаря наличию в горных районах региона ремесел, важной отрасли экономики, в оазисе издавна развивалось ремесло.

Ключевые слова: Южный Узбекистан, Кашкадарьинский оазис, общая площадь оазиса, вечные ледники, границы княжества, берега рек, русло рек, горные и предгорные районы, вакфные земли, правление мангитов, религиозные деятели, Замини амлок, замини цашох, малки цашох, местные губернаторы, горные районы.

Abstract. In this article, the author presents, based on scientific evidence, the fact that the Kashkadarya oasis is geographically divided into two large historical regions, including Shahrisabz and Karshi, that Shahrisabz (Ancient Kesh) is located in the upper reaches of the Kashkadarya, surrounded by the Hissar mountain ranges from the east, and that the Karshi (Ancient Naxhab) region is located in the lower Kashkadarya, in the plain part of the oasis, and that it is connected to the Kyzylkum in the west through the Sandiqli sand dunes.

It is also proven, based on scientific literature, that the mountains and foothills, hills, vast steppes, and irrigated areas in the Kashkadarya region have long served as the basis for the development of irrigated and dry farming, livestock breeding, and horticulture, and that handicrafts, an important branch of the economy, have long developed in the oasis due to the minerals and agricultural raw materials available in the mountainous regions of the region.



Keywords: *Southern Uzbekistan, Kashkadarya oasis, total area of the oasis, eternal glaciers, borders of the principality, river banks, riverbed, mountainous and foothill regions, waqf lands, rule of the Mangits, religious officials, Zamini amlok, zamiini tsashoh, malki tsashoh, local governors, highland regions.*

Kirish. Janubiy O‘zbekistonning yirik va muhim viloyatlaridan biri hisoblangan Qashqadaryo vohasi tabiati va tarixiy-iqtisodiy holatiga ko‘ra O‘zbekistonning Surxondaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlari bilan bog‘langanx[1:5].

Voha Pomir-Oloy tog‘ tizimining ikki g‘arbiy tizmalari-Zarafshon va Hisor tog‘lari oralig‘ida joylashgan bo‘lib, shimolda Samarqand viloyati, shimoliy-g‘arb va g‘arbda Navoiy va Buxoro viloyatlari bilan chegaralanadi. Shimoliy-sharqda baland Chaqirkalon tog‘i orqali voha Tojikiston Respublikasi bilan, janubda va janubi-g‘arbda Turkmaniston Respublikasi bilan chegaralanadi.

Qashqadaryo voha chegarasining umumiy uzunligi 795 km.ni tashkil etib, uning 405 km. tog‘li, qolgan 390 km. tekislikka to‘g‘ri keladi. Voha sharqdan g‘arbga 300 km.gacha, sharqdan janubga 200 km gacha cho‘zilgan bo‘lib, uning umumiy hududi 28,4 ming km² ni tashkil etib, bu butun O‘zbekiston hududining 6,3 foiziga tengdir[1:5].

Qashqadaryo so‘zi daryo nomi sifatida yaralgan. Daryo havzasining maydoni 12 ming km². Tog‘dagi qor, muz va yer osti suvlari bilan to‘yinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asr boshlariga oid statistik ma‘lumotlarda vohaning umumiy maydoni 26.286 murabba’ chaqirim[2:221] deb qayd etilgan bo‘lsa, boshqa bir ma‘lumotda vohaning umumiy maydoni 26.001km² teng ekanligi ta’kidlangan[3:5].

Qashqadaryo vohasi geografik jihatdan ikkita yirik tarixiy viloyatga Shahrisabz va Qarshiga bo‘linadi. Shahrisabz (Qadimgi Kesh) Qashqadaryoning yuqori oqimida joylashgan bo‘lib, sharqdan Hisor tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Quyi Qashqadaryoda, vohaning tekislik qismida esa Qarshi (Qadimgi Naxshab) viloyati joylashgan bo‘lib, u g‘arbda Sandikli qumliklari orqali Qizilqum bilan tutashib ketgan. Qashqadaryo Hisor tog‘ tizmalarining g‘arbiy qismida, Tavtosh tog‘ davoni yaqinida, dengiz sathidan 3 ming m balandlikdan boshlanadi. Daryoning uzunligi 300 km ga yaqin bo‘lib, u asosan sharqdan g‘arbga tomon oqadi va o‘rta oqimida Jindaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo kabi kichik daryolarni o‘ziga qo‘shib oladi. Qashqadaryo XII asrgacha Zarafshon daryosining quyi oqimiga quyilgan[4:21]. Tadqiqotchilar tomonidan Qadimgi Poykent shahri yaqinida Zarafshon daryosiga quyilgan Qashqadaryoning eski o‘zani topib aniqlangan[5:32].

Vohaning yana bir yirik suv manbai Yakkabog‘daryo (Qizildaryo) bo‘lib, eski Yakkabog‘ yaqinida ikki oqimga Qorabog‘ (g‘arbiy yo‘nalishda) va Qizilsuvga



(shimoliy-g'arbiy yo'nalishda) bo'linadi, Qizilsuv Qo'rg'on qishlog'i yaqinida Tanxozdaryoga kelib qo'shiladi[1:75].

Katta va Kichik O'radaryolarning qo'shilishidan hosil bo'ladigan G'uzordaryo qadimda Qashqadaryoning chap irmog'i hisoblangan[6:11-12].

Natijalar va muhokama. Qashqadaryo vohasi hududida abadiy muzliklar va qorlar bilan qoplangan baland tog'lar, chorvachilik hamda lalmi dehqonchilik va bog'dorchilikni rivojlantirish uchun qulay bo'lgan tog' oldi adirlari, hosildor tekisliklar va dashtlar mavjud. Voha hududini gidrologik va xo'jalik rayonlariga bo'lish mumkin. Vohada Jom, Qarshi va Nishon dashtliklari katta hududni egallaydi. Vohaning g'arbiy qismi Sandiqli qumliklari bilan o'ralgan[6:9-10].

Voha hududida mavjud bo'lgan tog'lar va tog' oldi zonalari, adirlar, keng dashtlar va sug'oriladigan maydonlar qadimdan sug'orma va lalmi dehqonchilikni, chorvachilikni, bog'dorchilikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Vohaning tog'li hududlarida mavjud bo'lgan foydali qazilmalar hamda qishloq xo'jalik xom-ashyo manbalari hisobiga vohada qadimdan iqtisodning muhim tarmog'i bo'lgan hunarmandchilik rivojlanib kelgan.

Hisor tog'larining tog' va tog' oldi hududlarida yovvoyi bug'doy va arpa maydonlari mavjud bo'lib[7:1-20] bu vohada qadimdan dehqonchilik, xususan, g'allachilikning rivojlanishiga zamin tayyorlagan.

Qashqadaryo vohasining yer yuzasi cho'l-qir va tekislikdan iborat, u shimoldan, sharqdan va janubi-sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan bo'lib, janubi-g'arbga tomon pasayib boradi. Shu bilan birga voha hududida onda-sonda (pastroq) qoldiq tog'lar va platolar ham uchrab turadi. Qarshi shahrining shimolida Qo'ng'irtog' (517m), Koson shahrining janubida Kosontog', Maymanoqtog' (500m), Sandiqli qumligining sharqida Olovuddintog' (485m), vohaning g'arbida Jarqoq plotasi (397m) va Dengiz ko'l plotasi (380m), Qarshi, Nishon, Qarnob, Malik cho'llari va Sandiqli qum cho'li kabi qator cho'llar mavjud, vohaning g'arbi esa Sandiqli qumligi bilan tutashib ketadi[8:205].

Qarshi cho'li janubda Nishon cho'li bilan tutashib ketgan bo'lib, yer usti tuzilishi jihatidan tekislik va balandliklardan iborat.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib rossiyalik harbiy topograf va geograflar tomonidan voha keng o'rganilib, tarixiy-geografik yo'nalishda ko'plab ma'lumotlar to'plandi. Ma'lumotlarni qaysi maqsadlarda to'planganligidan qat'iy nazar biz uchun muhim manbadir.

Polkovnik Belyavskiy Kitob, Shahrizabz, Yakkabog', Chiroqchi beklklarini shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon 40verst, perpendikulyar yo'nalishda esa 25



verst kenglikda, 1000 kvadrat verstdan ortiq serhosil yerlardan iborat hududda joylashganligini qayd etadi.

Kitob shahri dengiz sathidan 2150 fut, 703 mm, Shahrisabz shahri 1780 fut, 711.5 mm, Yakkabog' shahri 2560 fut, 695 mm, Chiroqchi shahri 1820 fut, 711.3 mm, G'uzor shahri 1530 fut, 718 mm balandlikda joylashganligi manbalarda aytib o'tilgan. Shuningdek Chiroqchi shahri dengiz sathidan 1340 fut balandlikda, G'uzor shahri 1310 fut balandlikda 38036.18 shimoliy kenglik va 35053.15 sharqiy uzunlikda joylashganligi aniqlangan.

Kapitan Arxipov voha beklklari chegaralari haqida to'xtalib, Qarshi bekligi chegaralari sharqda Qorabog', shimolda Jom, janubda Karki(Kerki) yo'lidagi Tallimarjon va Burdaliq yo'lidagi Qoravulquduq, g'arbda esa Qarshi shahridan 40 verst uzoqlikka cho'zilishini hamda o'z ichiga hosildor Qarshi vohasi hosildor, lekin suvsiz Qarshi cho'lini birlashtirib olishini qayd etgan.

I. Yavorskiy esa Qarshi shahri dengiz sathidan 418 m balandlikda hamda 38052.13 shimoliy kenglik, 35027.22 sharqiy uzunlikda joylashganligini keltirib o'tadi.

Shuningdek N.Mayev vohaning tarixiy geografiyasi yuzasidan ko'plab ma'lumotlar to'plagan. N.Mayev vohadan o'tuvchi yo'llarning oraliq masofasini hisoblab chiqib Shahrisabz bekligining chegarasi O'rtaqo'rg'ondan 0.5 tosh o'tgach Tizobkent qishlog'ida tugashi va shu yerdan Chiroqchi bekligi boshlanishini qayd etib o'tadi. Yakkabog'dan Hisorgacha bo'lgan yo'l va masofani o'rganib, Yakkabog'dan Yortepagacha 3 tosh, Yortepadan Kaltaminorgacha 7 tosh, Kaltaminordan Qoraxavalgacha 6 tosh, Qoraxavaldan Chakchakkacha 6 tosh, Chakchakdan Boysun shahrigacha 10 tosh masofa ekanligini aniqlagan.

Qarshi shahridan 45 verst janubi-sharqda G'uzor shahri joylashgan bo'lib, uning geografik o'rni Hisor tog' tizmasining g'arbiy yon bag'ridagi adirlarga to'g'ri keladi. G'uzor bekligi shimoldan Katta O'radaryoning yuqori oqimi, sharqdan Katta O'radaryo va Kirshaktog'ning sharqiy qismi bilan hamda g'arbdan 350-400 kenglik bilan chegaralangan. Beklikning g'arbiy qismidan oqib o'tuvchi Quyitang daryosi G'uzor va Kelif beklklarining chegarasi hisoblangan. G'uzor bekligining sharqiy, janubiy va g'arbiy qismlari tog'li hududlardan tashkil topgan. Shimoli-g'arbiy, ya'ni Qarshi bekligi bilan chegaradosh qismigina tekislikdan iborat edi. XIX asrga kelib Qarshi va G'uzor beklklari chegarasi Yangikent qishlog'i sanalgan.

XIX asr oxiri va XIX asr boshlarida qashqadaryo Chiroqchi shahri atrofidan chuqurligi 5 fut, eni 20-30 sajen kenglikda oqib o'tishi qayd etilgan[9:34]. Hisor tog'idan Chiroqchiga qadar daryo suvi kamaymagan holda yetib kelsa-da[10:4],



Chiroqchidan Qarshiga tomon uning suvi kamayib borgan va cho'lda qurib qolgan[9:167].

Qashqadaryo Jinnidaryo, Oqsuv, Tanxoz, Yakkabog'daryo, G'uzordaryo kabi irmoqlarni o'ziga qo'shib oladi. U tog'li tor vodiya tez oqsa-da, tekislikka chiqqach daryo o'zani kengayib, sekin oqadi va quyi qismiga borgach bir necha tarmoqlarga bo'linib ketadi. Bularning eng muhimlari Maymanoq daryo va Qamashi daryolar hisoblanadi.

Sug'oriladigan yerlar tuprog'i, asosan, tipik va och bo'z tuproqdan tashkil topgan. Kitob-Shahrisabz soyligida ko'proq qumoq tuproqqa duch kelinadi. Tog'larda esa balandlik mintaqalari bo'ylab tipik bo'z tuproq tarqalgan. Qashqadaryo vohasining adir, tog'li va tog' oldi tumanlari, sug'oriladigan tekislik va keng dashtliklardan iborat hududni qamrab olgan bo'lib, tabiiy sharoitning o'ziga xosligi ko'p asrlar davomida voha iqtisodiyotining asosi bo'lgan chorvachilik, sug'oriladigan va lalmi dehqonchilik rivojiga zamin yaratgan.

XVI-XIX asrlarda vohadagi mavjud yer mulklar-davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yerlaridan iborat bo'lib, davlat yerlari manbalarda turli nomlar bilan atalgan. Zamini amlok, zamini podshoh, mulki podshoh va boshqa shunga o'xshash nomlar shular jumlasidandir. Davlat yerlari ijaraga berilib, tegishli soliqlar yig'ib olingan. Davlat yerlaridan biri sanalgan o'lik yerlar manbalarda yabisat deb atalib, bunday nom olgan yerlar asosan, bir vaqtlar foydalanilib, keyin tashlab ketilgan yerlar hisoblangan. Bu kabi yerlarning taqdirini davlat hal etgan ya'ni, sotish, foydalanishga berish (ijara sifatida), mukofot tarzda xususiy qilib berish ham mumkin bo'lgan.

Xususiy yer mulklar foydalanish tartibi, to'lanadigan soliq hajmi va turiga qarab mulki xaraj, mulki ushr va mulki xurri-xolisga bo'lingan. Xususiy yerlarning asosiy qismi sotib olish orqali diniy amaldorlar qo'lida to'plangan edi, shuningdek, amaldorlar va ulamolar xonlik tomonidan tuhfa qilingan yerlarga ham ega bo'lgan. Yersiz dehqonlar korandalar, chorakorlar va vaqf yerlarida ishlovchi ijaradorlardan iborat edi.

Davlat yerlari Shayboniylar davrida Movarounnahrni ishg'ol etishda o'zbek sultonlariga suyurg'ol, iqto va boshqa shakllarda bo'lib berilgan.

Yer-mulk munosabatlarida vaqf yer-mulklar katta o'rin tutadi. Vaqf yerlar va ularning huquqiy maqomi Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asarida hamda XVIII asrga oid «Huquqiy risola»da[10:1] o'z aksini topgan. Tadqiqotchilar fikricha musulmon mamlakatlaridagi vaqf yerlar g'arb dunyosidagi, xususan g'arbiy Yevropadagi cherkov yer-mulklariga o'xshash bo'lgan[11:248].



O'rganilayotgan davrda vaqfning sof vaqf, shaxsiy vaqf, vaqf ahli, hamda sulolaviy vaqf-vaqfi av kabi yer mulklari mavjud edi[10:29].

XVI asr «Vaqfnoma» hujjatlarida Qarshi shahri atrofi, Kitob-Shahrisabzning Oqdaryo bo'ylaridagi, Yakkabog'daryo bo'yidagi qishloqlar nomi qayd qilingan. Shayboniylar hukmronligi davrida Samarqand shahridagi madrasalarga vaqf qilib berilgan bir qator quyidagi qishloqlar haqida ma'lumot berilgan: Tangxas (daryo), Kesh, Surxob, Rudak, Jaxshinuy, Bejnom, Shovkand, Shironali, Rojkand, Forisman, Yasoqiyon, Xashidak, YAg'nov, Kuron, Xashidak Poyon, Xashid Yasoqiyon, Andoyi Ahmad Mug'ilon, Qishnoqi Qosim, Chinorlik, A'lamlilik, Hisorak, Obikalon, Chechakboy, Obikarak, Tallisuyunchi, Qo'hisoyoh, Obiko'ndalang, So'fi, Qamish, O'g'riqo'l, Obiqashqa, Siyohob, Obig'ilon, Obisafid, Shervoq, Mankunjar (hozir Mengko'char), G'ubdin, Potron, Vijkat (hozirgi Beshkent), Niyoz, Mirmiron, Sakbodiza, Kukandiza, Putirkat, Ko'hak, Hojihidir, Ruknobod (hozirgi Nukrobod), Jo'ybor, Qorajilg'a, Ko'kijak (hozirgi Ko'chkak), Surxna, Jomxin, Dumishox, Kat.

Qashqadaryo vohasidagi vaqf mulklari asosan Tanxoz, Surxob (Qizildaryo) va Rudak (Qashqadaryo jilg'alaridan) daryolari bo'ylarida joylashganligi yozilgan. Jumladan, Tanxoz (Tanxozdaryo) daryosi bo'ylarida joylashgan va vaqf qilingan mulklarning asosiy qismi dehqonchilik qilinadigan, unumdor yerlardan iborat bo'lgan. Mevali va manzarali daraxtlar ko'p bo'lib, tegirmon va g'alla saqlash joyi (omborxon), ko'tarma ariq mavjudligi hujjatlarda qayd etib o'tilgan.

Qarshi dashtida 10 ming qo'y, 500 tuya, 7 ming ot, 300 qul, minglab tanob yer, do'kon va karvonsaroyga ega bo'lgan Xo'ja Islom haqida ma'lumotlar beriladi. XVII asrga oid hujjatlarda esa Yalangtushbiy 1631 yilda Shahrisabzda 52 ming 500 tangaga 1100 tanob sug'oriladigan yer sotib olganligi ta'kidlanadi. «Matlab ut-tolibin» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra Xo'ja Sa'dning o'g'li Tojiddinning Qarshi va Shahrisabzdagi mulklari: 100 ta yer maydoni, 50 ta bog' va uzumzorlardan iborat bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, XVII asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligida siyosiy hokimiyatning markazda zaiflashuvi oqibatida amaldorlar qo'lida juda katta mulklar to'plana boshlaydi. Mahalliy hokimlarning mavqei oshib ketishi oqibatida ular o'rtasida nizolar kuchaydi. Shaharlarning qamal qilinishi, qishloqlarning ekin-tekinlari payhon etilishi, yoshlarni majburlab qo'shinga olinishi xalqni mehnatdan sovutib qo'yadi, hunarmandlar, savdogarlar osoyishta joylar axtarib ko'chib keta boshlaydilar.

Shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti natijasida iqtisodiy yuksalish ro'y berdi. Mang'itlar hukmronligi davridan mamlakatda ichki nizolarga



asta-sekin barham berilib, shaharlar rivojlana boshladi. Qarshi XIX asr boshlarida iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib, amirlikda Buxoro va Samarqanddan soʻng uchinchi oʻrinda turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Кашкадарьинская область. Т.1. Природа. // Труды САГУ. Новая серия. Вып.155. Географические науки. Кн. 14. -Т.: САГУ, 1959.-С.5.
2. O'zbekistonni rayonlashtirish ishlaridagi materiallar. Loyihadagi mintaq va rayonlarning qisqacha ma'lumoti. – Samarqand, 1926.-В.221.
3. Материалы по районированию Средней Азии. Территория и население Бухары и Хорезма. Бухара.-Ташкент, 1959.-Кн.14.-Вып 155.-С.5.
4. Гулямов Я.Г. Исследование исторической географии низовьев Кашкадарьи и Зерафшана. ИМКУ. Вып.6.-Т.: Фан, 1965.-С.21.
5. Мухамеджанов А. Р. История орошения низовьев Зерафшана(с древнейших времен до начала XXв):.Автореф. дисс.докт.ист.наук. – Т.,1973.– С.32.
6. Лунина С. Б. Города Южного Согда в VII-XII вв. -Т.: Фан, 1984.-С.11-12.
7. Агроклиматические ресурсы Кашкадарьинской областей Узбекистана.- Л:Гидрометеиздат, 1979.-С.19-20.
8. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. - Т.: O'qituvchi, 1996.- В. 205.
9. Туркестанский сборник.-Т.288.-СПб., 1882.- С.34.
10. O'zRMDA, 1-jamg'arma, 34-ro'xat, 54-ish, 4-varaq.
11. Петрушевский И. П. Земледелие и аграрных отношение в Иране в XIII-XIV вв. –М.Л.: Наука. 1960.- С. 248.